

# ЎТМИШГА НАЗАР

5 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 5, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 5, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2022

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Раҳбар Ҳамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобоҷонова Дијором Бобоҷонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Аширов Адҳам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзРФА Тарих институти

**Аззамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзРФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қызлар давлат педагогика  
университети

**Ульяева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ким - технология институти

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Гоффоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қарши мұхандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боҳодир Жӯраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қарши давлат университети

**Махкамова Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент аҳборот технологиялари  
университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозогистон дипломатия академияси

**Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллаҗон Нуриддиновиҷ**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давлаталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмайлова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Дөгистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон Миллий университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
Тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон  
тиллари университети

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакций журналов.** [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of** [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Aziza Aminova</b> О'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O'RNI VA ROLI.....	4
<b>2. Акбар Бабабеков</b> ЁМ ҚИШЛОГИ ТАРИХИ ВА АҲОЛИСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ТАВСИФИ.....	9
<b>3. Акбар Даминов</b> “БОБУРНОМА”ДА ЗАРАФШОН ВОҲАСИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ВА ЕР-СУВ МУНОСАБАТЛАРИГА ОИД МАҶЛУМОТЛАР.....	19
<b>4. Бахтиёр Юлдашев</b> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ТЕМИР ЙЎЛ СОҲАСИДА ДАВЛАТ СИЁСАТИ.....	24
<b>5. Дишод Комолов</b> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА МУСТАҚИЛ СУД ҲОКИМИЯТИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ (1991-2000 йиллар мисолида).....	34
<b>6. Алишер Исоқбоев</b> ИСМОИЛБЕК ФАСПРИНСКИЙНИНГ “ИСТИЛОИ ТУРКИСТОН” РИСОЛАСИ ҲАҚИДА.....	49
<b>7. Rashid Xolmurodov</b> O'LKAMIZ TARIXININI O'RGANISHDA ME'MORCHILIK VA SAYYOHLIKNING AHAMIYATI.....	56
<b>8. Сабоҳат Абдураимова</b> ЧИРОҚЧИ БЕКЛИГИ АҲОЛИСИНИНГ ХЎЖАЛИК ТУРМУШ ТАРЗИ ВА ИҚТИСОДИЙ-МАИШИЙ ҲАЁТИ.....	62
<b>9. Feruza Utayeva</b> BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	72
<b>10. Шаҳло Ҳусанова</b> МИНГТЕПА ЭТНОГРАФИЯСИ ҲАҚИДАГИ ТАРИХИЙ РОМАН (М. Эгамбердиевнинг “Сариқ аждар ҳамласи” тарихий романни ҳақида).....	79
<b>11. Диором Чориева</b> КУТУБХОНАЛАР ТАРИХИДАН: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР (1991-2016 йиллар).....	87
<b>12. Rustam Shukurov</b> BUXORO AMIRLIGIDA ELCHILIK ISHLARI TARIXINING TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....	98



Rashid Mamatkulovich Xolmurodov,  
Jizzax pedagogika instituti dotsenti

## O'LKAMIZ TARIXININI O'RGANISHDA ME'MORCHILIK VA SAYYOHLIKNING AHAMIYATI

**For citation:** Rashid M. Holmurodov, THE SIGNIFICANCE OF ARCHITECTURE AND TOURISM IN STUDYING THE HISTORY OF OUR COUNTRY. Look to the past. 2022, vol. 5, issue 5, pp.56-61



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6615797>

### ANNOTATSIYA

Maqolada yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar tufayli mamlakatimiz ulkan qurilish maydoniga aylanganligi, mustaqillik yillarida qadimi me'moriy obidalarimiz ta'mirlanab, o'z ko'rkiga ega bo'lib borayotganligi ta'kidlangan. Faqatgina, Samarqand shahridagi Registon, Amir Temur maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi kabi obidalarimiz qayta ta'mirlanib, mahalliy va xorijiy sayyoohlarning doimiy qadamjosiga aylanib borayotganligi, bu esa ziyorat turizmining rivojida, o'lkamiz tarixini tadqiq etilishida muhim omil bo'layotganligi ko'rsatilgan. Shaharlarimiz qiyofasi ham tubdan o'zgarib, ko'p qavatlari zamonaviy binolar, uch qavatlari ko'priklari yo'llar, turar joy massivlar, sihatgohlar, ko'ngil ochar dam olish maskanlari barpo etilayotgani ham o'z navbatida, chet el sayyoohlarning yurtimizga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortishiga sabab bo'layotganligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** mustaqillik, o'lka, tarix me'moriy obidalar, Samarqand, Registon, Amir Temur maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi, obidalar, mahalliy, xorijiy, sayyoohlarning qadamjo, ziyorat turizmi.

**Рашид Маматкулович Холмуродов,**  
Джизакский педагогический институт, доцент

## ЗНАЧЕНИЕ АРХИТЕКТУРЫ И ТУРИЗМА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ НАШЕЙ СТРАНЫ

### АННОТАЦИЯ

В статье отмечается, что наша страна превратилась в огромную строительную площадку благодаря масштабным реформам, проводимым в нашей стране, а за годы независимости наши древние архитектурные памятники отреставрированы и стали еще краше. Только наши памятники, такие как Регистан, мавзолей Амира Темура, мечеть Бибиханум, комплекс Шахизинда в Самарканде, реставрируются и становятся постоянным местом посещения местных и иностранных туристов, что является важным фактором развития паломнического туризма и изучения истории нашей страны. Кардинально изменился и облик наших городов, со строительством современных многоэтажных домов, трехэтажных мостов,

жилых массивов, санаториев, зон отдыха, что, в свою очередь, привлекает иностранных туристов в нашу страну и это привело к росту интереса.

**Ключевые слова:** независимость, регион, историко-архитектурные памятники, Самарканд, Регистан, мавзолей Амира Темура, мечеть Бибиханим, комплекс Шахизинда, памятники, местные, иностранные, туристы, святыня, паломнический туризм.

**Rashid M. Holmurodov,**

Jizzakh Pedagogical Institute, Associate Professor

## THE SIGNIFICANCE OF ARCHITECTURE AND TOURISM IN STUDYING THE HISTORY OF OUR COUNTRY

### ABSTRACT

The article notes that our country has become a huge construction site thanks to large-scale reforms carried out in our country, and over the years of independence, our ancient architectural monuments have been restored and become even more beautiful. Only our monuments, such as the Registan, the mausoleum of Amir Temur, the Bibikhanum mosque, the Shakhizinda complex in Samarkand, are being restored and become a permanent place for visiting local and foreign tourists, which is an important factor in the development of pilgrimage tourism and the study of the history of our country. The appearance of our cities has also changed dramatically, with the construction of modern high-rise buildings, three-story bridges, residential areas, sanatoriums, recreation areas, which, in turn, attracts foreign tourists to our country and this has led to an increase in interest.

**Index Terms:** independence, region, historical and architectural monuments, Samarkand, Registan, Amir Temur mausoleum, Bibikhanim mosque, Shakhizinda complex, monuments, local, foreign, tourists, shrine, pilgrimage tourism.

### **1.Dolzarbliji:**

Bugungi o`z-o`zini anglab, mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan sharoitda ona yurtning har bir farzandi uchun Vatan tarixini sevish, o`rganish, diliga jo etishdan ham muqaddasroq burch bo`lmasa kerak. Ushbu maqola aynan shu mulohazadan kelib chiqqan holda yaratilgan. Ota-bobolarimiz, ajdodlarimizning aql-zakovati, oltin qo`li ila IX - XII asrlardayoq kishi aqli bovar qila olmaydigan darajada nafis va nozik qilib ishlangan naqshlar qadimiy va navqiron Samarqand, Buxoro va Xiva devorlarida o`zini ko`z-ko`z qilib turibdi. O`sha davr uslubi bilan yuksak mahorat ko`rsatib qurilgan muhtasham binolar va bu binolardagi Sharq uslubiga xos o`ymakorlik naqshlari o`z taraqqiyotining cho`qqisiga ko`tarilganligidan guvohlik beradi. Bunday o`ymakorlik naqshlari bilan bir qatorda islimiyl uslubda ishlangan naqshlar, ya`ni gul va novdalarning murakkab uslubdagi naqshlari va hozirgi kungacha yaxshi saqlanib kelayotgan tillada qorilib o`yilgan boshqa bezaklar ajdodlarimiz yuksak san`atining timsoli sifatida bugun ham hammani lol qoldirib turibdi. Qadimgi va o`rta asrlar me`morchilik obidalarini saqlash, o`rganish va muhofaza qilish hozirgi zamon yosh avlodni, mehnatkashlarni vatanparvarlik ruhidha tarbiyalashda, xalqlarning baynalmil do`s tilgini mustahkamlashda katta rol` o`ynaydi. SHuning uchun ham o`tmish tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarini o`rganish, muhofaza qilishning rolini oshirish mua-mmolarini hal qilishga katta ahamiyat berilmoqda. O`zbek xalqining tarixiy, madaniy va me`morchilik yodgorliklari jahon madaniy merosining tarkibiy qismi bo`lib, jahon taraqqiyotiga qo`shilgan g`oyat katta ulushdir. Mana shunday muhim, nodir, qimmatli ahamiyatga molik bo`lgan moddiy va ma`naviy yodgorliklarni har tomonlama ilmiy va amaliy jihatdan o`rganish va tahlil qilishda me`morchilik va sayyohlik orqali yoshlar dunyoqarashida vorisiylik tamoyillarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **2.Metodlar:**

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik,qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma ketlik, xolislik tamoillari asosida yozilgan bo`lib, unda o`lkamiz tarixinini o`rganishda me`morchilik va sayyohlikning ahamiyati haqida ma`lumotlar berilgan.

### **3.Tadqiqiot natijalari:**

O'zbek me'morchiliginning noyob obidalari allaqachon haqqoniy ravishda jahonshumul shuhratga sazovor bo'lgan Me'morchilik obidalarining tarixiy ildizlari arxeologlar tomonidan yushtirilgan ekspeditsiyalar yordamida yer qatlamlarida ko'milib yotgan, ikki – uch ming yillik qadimiyatga ega bo'lgan O'zbekistonagi ko'plab me'moriy inshoatlarning qoldiqlari ochilmoqda. Qadimiy shaharlardagi arxitektura yodgorliklari hozirgi davrda ham hayot qo'ynida to'laqonli "yashamoqda" va sayyoohlarni o'ziga maftun etmoqda. O'zbekiston hududida o'rta asrlarga oid moddiy madaniy yodgorliklarning ko'pchiligi hali ham yaxshi saqlanib qolgan.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Urganch, Farg'on, Andijon, Qo'qon, Termiz, Jizzax, Toshkent shaharlari va viloyat tumanlarida ko'plab masjid, madrasalar, xonaqoh hamda daxmalar, qal'alar, minoralar, sardoba, xammomlarni uchratish mumkin.

Qadimgi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllangan viloyatlar ko'p bo'lgan. Bu yerlarning harakterli hususiyatini o'troq – dehqon va chorvador aholi hayoti tarzida bizning eramizgacha bo'lgan II ming yillikdayoq shahar nomi madaniyatining shakllanishini tashkil qilgan. Shimoliy Baqtriyada arxeologlar tomonidan bu davrga oid mudofaa devorlari bilan o'ralgan va mustaxkam ichki binolardan iborat bo'lgan to'g'ri burchak shaklidagi Sopollitepa va Jarqo-ton manzilgohlari to'liq ochib o'rganildi. Sopollitepaning o'rganilishi O'zbekiston hududida sug'orma dehqonchilik qariyb to'rt ming yoshga ega ekanliginligini ilk shaharlar paydo bo'lishi tarixi ham shuncha davrni o'z ichiga olishini ko'rsatadi[1].

Xiva Markaziy Osiyo shaharsozligi durdonalaridan biriga aylangan. Shaharning madrasalari masjidlari, saroylari, jamoat inshoatlar oradan ko'p asrlar o'tgan bo'lsada, o'z ulug'vorligi, chiziqlarning nafisligi va go'zalligi ranglarning yorqinligi hozir ham kishilarni hayratga solmoqda. Xivadagi Toshhovli, Xorazm qishlog'idagi Degarron machiti, Raboti Malik karvon saroyi, Ichan qal'a, Ko'xna Ark, Sayyid Alovuddin sag'anasi, Bog'bonli masjidi, Paxlavon Maxmud kompleksi, Olloqullixon madrasasi, Polvon Darvoza ansambil jome masjidi va boshqa tarixiy obidalarning minoralari, ko'kga bo'y cho'zgan sarv – qomat ustunlari, sirlangan rangli g'ishtlari, ajoyib shahar taassurotini hosil qiladi.

1842 – yilda Xiva tevaragidagi yangi qal'a davri tiklandi. Uning o'nta darvozasi bo'lib, aholisi zinch yashaydigan rabotlarni shahar atrofi bog'lari va imoratlari o'ziga qo'shib oladi. Natijada katta xalqa – "Tashqi shahar" – Dishan qal'a ichkarida qolgan "Ichki shahar" – Ichan qal'a deb ataladi. Ichan qal'a Xivaning ibodatxonasi va oddiy inshootlari bo'lgan ancha avvalgi davr imoratlari hududini o'z ichiga oladi. Dishan qal'ada asosan hunarmandlar joylashgan edi. Markaziy Osiyoda Antik davrda shaharlar son jihatidan ortib maydoni kengayib, harbiy estehkomlar takomillashib ba'zi davlatmandlar uylari va hukmdorlar saroylari Xorazmdagi Tuproqqa'l'a, Surxondaryodagi Xolchayon va Dalvarzintepa miqyosi, saramjonligi xarakteri bilan alohida ajralib turadi[2]. Qadimgi vaqtlardayoq Baqtriyada (Dalvarzintepa, Bandixon) to'g'ri burchakli, qubbali daxmalar, Sirdaryoning quyi oqimi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida (Tagisgen, Chirchiqrabot) doira shaklidagi Markaziy gumbazi va aylanma xonalari bo'lgan dafn inshoatlarining turlari maqbaralar shakllana bordi.

Navoiy – Karmana shahri yaqinidagi arxeologik qazilmalar paytida topilgan mustahkam devorli qadimiychasiga yarim minoralar va chiroyli peshtoq bilan o'ralgan ganch o'ymakorligi bilan qoplangan Raboti Malik o'zining me'morchilik shakli bilan haqiqatan ham shohona bino hisoblanadi.

XIV asrning so'nggi choragida jahon tarixinining siyosiy maydoniga Sohibqiron Amir Temurning chiqishi davlatning tashqi chiroyiga katta e'tibor berib, masjidlar, madrasalar, bozorlar, karvonsaroylar, hukumat saroylari, turar joyi binolari qurilishi Movorounnahr shaharlari, ayniqsa poytaxt Samarqand shahriga xorijiy mamlakatlar me'morlari keltirilib, ko'p mablag' sarflandi. Mahalliy me'morchilik manbaiga shu sabab bo'ldi eron, Iroq, Suriya, Ozorbayjondan keltirilgan yangi kuchlar va ijodiy g'oyalar quyilishi, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Amir Temur farmoni bilan Samarqand va Shahrisabzda, temuriylarning sulolaviy maqbalari – Darus – Saodat va Go'ri Amir, Oq saroy va Bibixonim masjidi va ko'plab inshoatlar barpo etildi[3].

XIV – XV asrlar mobaynida Shohizinda ansamblining ko'pchilik me'morial qurilishlari yuzaga keldi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida shahar qurilishining eng yuksak arxitekturasi orasida Samarqanddagagi, Shohizinda, Registon ansamblari Ko'kaldosh kichik Mukayto masjidi

binolari qad ko'targan edi. XVI-XVII asrlardagi me'morlar tomonidan shahar chetida joylashgan Buxorodagi Chorbakir va Bahovuddin, Toshkentdagagi Xo'ja Ahror maqbalarini ta'mirlanishida Davron Murodov va boshqa ko'plab, mashhur ustalar yetishib chiqdi. Buxoroda Sitorai Mogi Xosa qurilishini Usta Shirin Murodov boshliq bo'lgan guruh va usta ganchkorlar amalga oshirdi.

Xorazm me'morchilik maktabining sarkardasi Odina Muhammad Murod, usta kulol Nurmuhammad, Abdujabbor, uning o'g'li So'fimuhammad Niyozi va Abdullalar edi.

Bu davrda Mahmud A'zam ansamblari barpo etildi. XVIII asrda butun Markaziy Osiyon qamrab olgan ijtimoiy – iqtisodiy tanazzul ko'plab faoliyatlarining to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Bizning kunlarga gacha yetib kelgan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi qurilishlar asosida turar joylar binolar alohida o'rinni tutadi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik davri to'ma'noda Hazrat Amir Temuring qayta tug'ilish davri bo'ldi. Amir Temur mamlakatimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi. U tariximizda ulkan markazlashgan qudratli davlat tashkil etdi. Qudratli muntazam armiyani vujudga keltirdi. Jahonda mislsiz ilmiy madaniy va ma'rifiy muhitni yaratdi. Ko'plab obodonlashtirish ishlarini amalga oshirdi. Jahan miqyosidagi me'morchilik ishlarining rahnamosiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori, Prezidentning 1996 – yilni "Amir Temur yili deb e'lon qilish to'g'risida"gi 1995 yil dekabrdagi farmoni Amir Temur qadryatini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Toshkent shahrida temuriylar tarixi davlat muzeyi boryo'g'i olti oy mobaynida buniyod etilgan, me'moriy jihatdan murakkab muhtasham inshoat hisoblanadi. Bu avvalo bobokalonimizning shonu – shavkatiga, dunyoviy obro' e'tiboriga va daholigiga munosib baho bo'lgan ikkinchi tomondan temuriylar bugungi avlodning buniyodgorlik qudratidan nozik didi, beqiyos estedod va hayotining cheksizligidan dalolat beradi. Inshoatning umumiyligi maydoni besh ming kvadrat metrini tashkil etadi. Samarand shahrida yangi inshoatlar qurildi, bog'lar barpo etildi. Shahar markazidagi ko'rakam Amir Temur maydoni Samarcand sayqaliga sayqal qo'shdi.

Xalq turmush tarzi va ma'naviyatining tarkibiy qismi uning azaliy urf-odatlari, marosim va bayramlari tashkil qiladi. Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanish "Navro'z" bayramining xalqimizga qaytarib berilishi, mamlakat tarixida katta voqealarni bo'ldi. Ma'naviy hayotdagi diniy bayramlar, hayit kunlarining respublikada umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo'l ochilgani ma'naviy poklanishning muhim ko'rinishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilgan 1991-yil Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Toshkent shahrida ulug' bobomizning muhtasham va purviqor haykali o'rnatildi, u xalqning muqaddas ziyoratgohiga aylandi. Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Zahriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan allomalar sifatida xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldi. Samarcand, Buxoro va Xiva butun insoniyat uchun ziyoratgoh makonga aylandi. O'zbekiston har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi ulug' shoir va ma'rifikatparvarlar kunlarini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Mustaqillik yillarda Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Hamid Olimjon, Sharof Rashidov va boshqa davlat va jamoat arboblari yubeleylarining o'tkazilishi, ma'naviy hayotdagi muhim voqealar bo'ldi.

Markaziy Osiyodagi o'rta asrlar madaniyatining bu yuksak parvoziga Mug'ul bosqinchilarining XIII asrdagi bosqini juda katta zarar keltirdi. Markaziy Osiyo, Sharq bu zulmdan qutilishi uchun deyarli uch yuz yil vaqt kerak bo'ldi. Faqat XVI asrdagina Markaziy Osiyo ma'morchiligidagi jonlanish yuz berdi. Buxorodagi Buyonqulixon, Sayfiddin Boxarziy maqbalarini, Samarcanddagi Shohizinda dastlabki guruhi barpo etilgan edi. XIX asrning XX asr boshlarida Buxoro va Xiva xonligi me'morchiligidagi Obloql va Ibrohim Xofizovlar, Mo'minjon Solihov, Shirin Murodovlar munosib hissa qo'shdilar.

1960-1980 yillarda sobiq sovet tuzumi davrida Respublikamizda barpo etilgan me'morchilik inshoatlari bevosita Sh.Rashidovning tashabbusi bilan bog'liq. Jizzaxda atoqli yozuvchi va davlat arbobi Sh.Rashidovning 100 yillik yubileyi Respublikamizda keng nishonlandi. Sharof Rashidov ijodiga bag'ishlangan davra suhbatlari, ko'plab chiqishlar uyuşhtirildi. Ayniqsa, 2017-yilda [6] moskvalik Fyodor Razzoqovning "Spasi Rashidova"[5] 2019-yilda chop etilgan "Andropov protib

SSSR” (“Rashidovga” bag’ishlangan) kitoblari xalqimiz qalbida katta taassurot uyg’otdi. Kitobda Respublikamizning barcha shaharlarida bunyod etilgan me’morchilik qurilishlar, Navoiy, Olmaliq, Yangier kabi o’nlab shaharlar zavod, fabrikalar, Toshkentdagi O’rta Osiyoda yagona bo’lgan metropoletinning tashkil etilishini ta’kidlab o’tgan[6].

Mamlakatimiz boy tarixiy merosga ega. Qadimiylar me’moriy obidalarimiz, yangi zamona viy me’morchiligidan chet ellik sayyoohlarning yurtimizga bo’lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda.

Jizzax viloyati tashkil topgandan keyin 1974-yili Jizzax viloyat sayyoohlilik byurosiga ish boshlagan edi. Sangzordagi 50 kishiga mo’ljallangan kemning bazasi to saksoninchi yillar o’rtalarigacha yo’lovchi sayyoohlarning uchun xizmat ko’rsatib keldi.

1986-yildan boshlab Jizzaxdagi kempinning turbazaga aylantirildi. Dam oluvchilar va sayohatchilar uchun yaxshi sharoitlar yaratildi. Kempingda 60 o’rinli choyxona, 50 o’rinli videobar, muzqaymoq sotadigan do’konlar ishga tushirildi. Bundan tashqari Rossiyaning Chelyabinks, Sverdlovsk va Omsk kabi shaharlari bilan sayohatchilarni qabul qilish yuzasidan shartnomalar tuzildi. Bugungi kunda bo’linma “O’zbek turizm” milliy kompaniyasining Jizzax mintaqaviy bo’linmasiga aylantirilgan bo’lib, qo’shni viloyatlardan MDH mamlakatlaridan, Hindiston, Saudiya Arabiston, Suriya, Turkiya, Pokiston, Xitoy, Germaniya, Malayziya kabi qator xorijiy davlatlar bilan mustahkam aloqa o’rnatalgan. 1999-yili “Hissadorlik jamiyat” tomonidan 1840 nafar chet ellik sayyoohlarga 37000 xorijiy valyutada xizmat ko’rsatilib, sof valyuta tushimi 690 ming AQSh dollarini tashkil qildi. Qabul qilingan sayyoohlarning orasida Rossiya, Arab Amirliklar, Indoneziya, AQSh, Germaniya, Turkiya va boshqa davlatlarning fuqarolari bor edi. Jizzax viloyat hokimligining 1999 – yil 18-oktyabrdagi “Ipak yo’li bo’yicha turizm”, 5-Toshkent Xalqaro turistik yarmarkasida “Jizzax sayohat” hissadorlik jamiyatining ishtiroki haqidagi farmoyishiga muvofiq, 2001 – yil uchun Gretsya, Germaniya, Fransiya, Misr, Malayziya, Indoneziya, MDH davlatlari bilan 300000 AQSh dollari hajmida o’zaro shartnomalar tuzilib, amalga oshirildi [7]. Mahalliy sayyoohlarning uchun Jizzax Zomin – Baxmal marshurtlari bo’yicha avtobus sayyoohlilik qatnovi yo’lga qo’yildi.

Keyingi yillarda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev me’morchilikka, shaharsozlikka, obodonchilikka va turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy me’moriy yodgorliklar obodonlashtirilib xalqimiz va chet ellik sayyoohlarning uchun ziyoratgoh maskanlarga aylantirildi. “Obod mahalla”, “Obod qishloq” dasturi asosida ko’plab turarjoylar obodonlashtirilmoqda. Birgina misol Toshkent shahri o’rtasidan o’tgan bo’z suv daryosini ichi va atrofi tozalinib, qirg’oqlari oromgohga aylantirildi. Toshkentda mahobatli “Hilton” Toshkent City mehmonxonasi qurildi. Mehmonxona 21 etajli bo’lib, 258 xonadan iborat. 8 tasi Prezident nomeri hisoblanadi. Ushbu mehmonxona jahon standartlariga mos ravishda qurilgan bo’lib, barcha talablarga qori darajada javob beradi. Bunday obodonlashtirish ishlari butun respublikamiz miqyosida keng quloch yozdi. Shuningdek, Namangan shahrida Rossiya ishtirokida 9 etajli 250 o’rinli mehmonxona ishga tushirildi. 100 ta bir xonali, 50 ta ikki xonali, qolganlari 3-4 xonadan iborat bo’lib, bir yarim ming kishi mehnat qiladigan istirohat bog’i, favvoralar, amfiteatr, 600 o’rinli ovqatlanish shahobchasi mavjud. Bunday afsonaviy inshoatlar O’rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Yaqinda ishga tushishiga qaramay faqatgina chet eldan kelgan turistlardan bir ming bir yuz kishi dam olgan.

Farg’ona viloyatining qir-adirida joylashgan, betakror tabiatini bilan har qanday kishini maftun etuvchi “Chimyon” sayilgohining o’ziga xos jihatlaridan biri shundan iboratki, bu yerdagi ma’danli shifobaxsh mineral suvi Sochidagi “Masesta” sihatgohi suvidan qolishmas ekan. Bu albatta ham ichki, ham tashqi sayyoohlarni o’ziga jalg etib kelmoqda[8].

Bo’stonliq Toshkent shahridan 30 km uzoqda dengiz sathidan 450 m balandlikda joylashgan. U yerda Bo’stonliq shifobaxsh sanatoriysi bor. Turizm uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Turistlar uchun tog’ chang’isi, ayniqsa Bo’stonliq kanati bor. Uning uzunligi 2300 metr bo’lib, unda sayr qilgan sayyoohlarning tabiatining ajoyib mo’jizalaridan bahramand bo’ladi.

“Xorazm palace” mamlakatimizdagi eng nufuzli mehmonxonalardan biri. Bu yerda jahon andozalari doirasida xizmat ko’rsatiladi. “Xorazm palace” to’rt yulduzli mehmonxona bo’lib, 148 o’ringa ega. Unda 2 ta lyuks, 37 ta yarim lyuks, 64 ta standart xonalarning barchasida mehmonlar uchun zarur sharoitlar yaratilgan[9]. Bunday oromgohlar, dam olish joylari, keng manzarali joylar

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Jizzax va boshqa viloyatlarning deyarli barcha hududlarida barpo etilmoqda. Jizzax viloyati ichki va tashqi sayyoohlar uchun eng qulay maskanlardan biri hisoblanadi. Zomin tog'larining tabiatni, obi-havosi, iqlimi, manzarasi qishin-yozin bir xil. Shu sabab manzarali tabiatni Shveysariyadan qolishmaydi. Bu yerga tashrif buyurayotgan sayyoohlarning soni yil sayin oshib bormoqda. Xuddi shuningdek, Baxmal, G'allaorol, Forish, Aydarko'l hududlari ham tobora sayyoohlarning o'ziga jalb etayotgan xududlarga aylanib bormoqda. Misol uchun Arnasoyda 8 ming metr chuqurlikdan 40 gradus issiqlikda chiqadigan, tarkibi Sulfatnatriy shifobaxsh tabiat nemati Rossiyaning Ijevskiydan chiqadigan minerali bilan barobar ekan. Shifo uchun bu yerga kelayotgan sayyoohlarning soni yil sayin oshib bormoqda.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohadagi o'zgarishlar jahon ommaviy axborotlarida keng yoritilib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonimizni shuhratini jahonga yoymoqda. Yurtimizga kelayotgan sayyoohlarning soni ham yil sayin o'sib bormoqda. 2017-yilda yurtimizga 1,5 mln sayyooh kelgan bo'lsa, 2018-yilda 3 mln.dan oshgan, 2019-yili 6 mln.dan oshib ketdi. 12. 2023 yilga borib yurtimizga sayyoohlarning kelishi 10 mln.ga yetishi kutilmoqda.

#### **4.Xulosalar:**

Shunday qilib, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlartufayli mamlakatimiz ulkan qurilish maydoniga aylandi. Mustaqillik yillarda qadimiy me'moriy obidalarimiz ta'mirlanab, o'z ko'rkiga ega bo'ldi. Faqatgina, Samarqand shahridagi Registon, Amir Temur maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi kabi obidalarimiz qayta ta'mirlanib, mahalliy va xorijiy sayyoohlarning doimiy qadamjosiga aylangan. Shaharlarimiz qiyofasi ham tubdan o'zgarmoqda. Ko'p qavatli zamonaviy binolar, uch qavatli ko'priklar yo'llar, turar joy massivlar, sihatgohlar, ko'ngil ochar dam olish maskanlari barpo etildi. Bunday o'zgarishlar o'z navbatida, chet el sayyoohlarning yurtimizga bo'lgan qiziqishlarini tobora ortishiga sabab bo'lmoqda.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Asqarov A. O'zbek xalqi kelib chiqish tarixi. -Toshkent. 2015. 181-182-betlar.
2. Temur va Ulug'bek davri tarixi. -T., 1996, 95-bet.
3. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. -Toshkent. 2015. 180-bet.
4. O'zbekiston tarixi. -T. 1998, 234-bet.
5. Razzoqov F.I. "Spasi Rashidova", -Moskva. 2017.
6. Razzoqov F.I. "Andropov protiv SSSR". -Moskva. 2019.
7. Jizzax viloyati sayyoohlilik buyrosi materiallari. 2001 yil.
8. "Ishonch" gazetasi. 2019 yil sentyabr, 56-bet.
9. "Ishonch", 2019 yil sentyabr, 45-bet.

# ЎТМИШГА НАЗАР

5 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 5, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 5, ISSUE 5

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000